


BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARI INTEGRATSIYASI



Umarova Dilafroz Anvarovna

“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Suyunova Latofat Husan qizi

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-21-guruh talabasi

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta’lim fanlari integratsiyasi o‘quvchilarning bilimlarini yaxlit holda shakllantirish, ularning tafakkurini rivojlantirish va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yondashuv orqali fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi va o‘quv materiallari o‘zaro uyg‘unlashgan tarzda taqdim etiladi. Integratsiyalashgan ta’lim usullari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mavzuni yaxshiroq tushunishiga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, kreativ yondashuvi va fanlararo bog‘liqliknki to‘g‘ri aniqlay olishi katta ahamiyat kasb etadi. Integratsiya orqali darslar mazmunan boyitiladi, bolalarda kuzatish, tahlil qilish va umumlashtirish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Ushbu yondashuv nafaqat o‘quvchining bilim sifatini oshiradi, balki ularning darsga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, fanlar integratsiyasi, fanlararo bog‘liqlik, o‘qitish samaradorligi, metodik yondashuv, yaxlit ta’lim, ta’lim jarayoni.

Annotation. Integration of primary education subjects is an important factor in the holistic formation of students' knowledge, the development of their thinking, and the more effective organization of the educational process. Through this approach, the connection between subjects is determined and educational materials are presented in a harmonious manner. Integrated teaching methods help primary school students better understand the subject and broaden their worldview. In this regard, the teacher's methodological preparation, creative approach, and ability to correctly identify intersubject connections are of great importance. Through integration, lessons are

enriched in content, and children develop skills such as observation, analysis, and generalization. This approach not only increases the quality of students' knowledge, but also increases their interest in the lesson.

Keywords: primary education, integration of subjects, intersubject connections, teaching effectiveness, methodological approach, integrated education, educational process.

Аннотация. Интеграция предметов начального образования является важным фактором целостного формирования знаний учащихся, развития их мышления, более эффективной организации образовательного процесса. Такой подход выявляет связи между дисциплинами и представляет учебные материалы в последовательной форме. Интегрированные методы обучения помогают учащимся начальной школы лучше понять предмет и расширить свой кругозор. В этой связи большое значение имеет методическая подготовка учителя, творческий подход, умение правильно выявлять межпредметные связи. Благодаря интеграции уроки обогащаются по содержанию, а у детей развиваются такие навыки, как наблюдение, анализ и обобщение. Такой подход не только улучшает качество знаний учащихся, но и повышает их интерес к уроку.

Ключевые слова: начальное образование, интеграция дисциплин, межпредметные связи, эффективность обучения, методический подход, целостное образование, образовательный процесс.

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimida yangilanishlar, o‘qitishning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda chuqur bilim va kompetensiyalarni shakllantirish dolzARB vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalar asosining shakllanishi, ularda mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish qobiliyatlarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim fanlarini integratsiyalash bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof

etilmoxda. Fanlararo integratsiya – bu o‘quvchilar ongida borliq haqidagi bilimlarni yaxlit tasavvurga aylantirishga xizmat qiladigan, fanlar orasidagi tabiiy va mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlaydigan metodik yondashuvdir. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarining darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, mavzularni chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi, bilimlar esa hayotiy voqelik bilan bog‘liq holda mustahkamlanadi. Integratsiyalashgan ta’lim mazmunan boy, didaktik jihatdan asoslangan bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishga va mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda fanlarni integratsiyalashga asoslangan yondashuvni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishda, o‘qituvchining pedagogik mahoratini yuksaltirishda va o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini integratsiyalash masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab pedagog va metodistlar tomonidan o‘rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Turli adabiyotlarda integratsiya tushunchasiga berilgan ta’riflar, uni amalga oshirish usullari hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni turli yondashuvlar asosida bayon etilgan. Jumladan, A.A. Abduqodirov, M.M. Teshaboyev kabi olimlar fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari, uning didaktik va metodik xususiyatlariga to‘xtalib, bu yondashuv o‘quv jarayonining yaxlitligini ta’minlashini ta’kidlaganlar. Ularning ilmiy ishlarida fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, darslarni integratsiyalashgan holda tashkil qilish metodikasi haqida amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, Z.A. Murodovning ishlarida integratsiyalashgan darslarning tuzilmasi, undagi komponentlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan. Muallif boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun integratsiyalashgan ta’lim usullari ularning bilimlarini mustahkamlash, mavzularni bir-biri bilan uyg‘unlashtirib o‘zlashtirish imkonini berishini ta’kidlaydi. Boshqa bir qator tadqiqotlarda, masalan, X. Abduazizova va N. Jo‘raevaning ishlari orqali boshlang‘ich ta’lim fanlarini integratsiyalashda o‘qituvchining roli, uning metodik tayyorgarligi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ahamiyati yoritilgan. Xorijiy adabiyotlarda esa integratsiya ko‘proq "cross-curricular" yoki "interdisciplinary approach" sifatida

ko'rib chiqilib, o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog'langan bilim olish jarayonini tashkil etishga urg'u beriladi. Ularning tajribasida, ayniqsa, STEAM yondashuvi orqali tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlari o'zaro bog'liq holda o'qitilishi integratsiyalashgan ta'limning samarali namunasi sifatida ko'rsatiladi. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya nafaqat o'quvchilarning bilim sifati va tafakkurini rivojlantirishda, balki ularni hayotiy masalalarni hal qilishga tayyorlashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish, metodik yangilanishlar kiritish va pedagogik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslarini o'rghanish, amaliyotdagi holatini tahlil qilish va samaradorligini aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqotda ilmiy izlanishlar olib borishda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unligidan foydalanildi. Sifat jihatidan – fanlararo integratsiya bo'yicha mavjud nazariy qarashlar, ilg'or tajribalar, metodik adabiyotlar va pedagogik nazariyalar tahlil qilindi. Miqdoriy jihatdan esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan so'rovnama, kuzatuv va suhbatlar o'tkazildi. Ushbu metodlar orqali fanlararo integratsiya jarayonining qanchalik samarali tashkil etilayotgani, o'qituvchilarning bu boradagi tayyorgarligi, shuningdek, darslarda integratsiyalashgan yondashuvning o'quvchilar bilimiga ta'siri aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot davomida eksperimental sinflarda dars kuzatuvlari orqali an'anaviy va integratsiyalashgan darslar o'rtasidagi farqlar kuzatildi. Natijalarni tahlil qilishda taqqoslash, umumlashtirish, diagnostika va modellashtirish kabi metodlardan foydalanildi. Shu bilan birga, tajriba asosida dars ishlanmalari ishlab chiqildi va ularning natijalari asosida xulosalar olindi. Barcha to'plangan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi, asosan, pedagogik tajriba, empirik kuzatuvlar, so'rovnama va hujjatlarni tahlil qilish metodlariga tayandi. Bu esa mavzuni har tomonlama chuqur va asosli o'rghanish imkonini berdi.

Natija va muhokama. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida boshlang'ich ta'limgan fanlarini integratsiyalash ta'limgan jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekani aniqlandi. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning bilimni yaxlit qabul qilishiga, turli fanlar mazmunini bir-biriga bog'lab tushunishiga va ularni real hayotdagi holatlar bilan bog'lay olishiga yordam beradi. Tajriba darslarida integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, faol ishtiroki va mustaqil fikrlash darajasi yuqoriligini ko'rsatdi. Shuningdek, o'qituvchilarning fikr-mulohazalari va kuzatuvarlar asosida shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan ta'limgan metodlari darslarning mazmunan boy va didaktik jihatdan qulay tashkil etilishiga zamin yaratadi. Muhokamalar davomida aniqlanishicha, fanlararo integratsiyani to'g'ri tashkil etish uchun o'qituvchi nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqlikni anglay olishi va tegishli metodik ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Amaliyotda esa ayrim o'qituvchilar integratsiyaga doir yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmagani sababli bu jarayonni to'laqonli amalga oshira olmayapti. Shuningdek, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarda fanlararo bog'liqlik yetarli darajada aks ettirilmagani ayrim hollarda darsni integratsiyalashgan tarzda olib borishni qiyinlashtiradi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich ta'limgan fanlararo integratsiyani kengroq joriy etish, bu boradagi metodik qo'llanmalarni boyitish, o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali ta'limgan sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yaratishga yo'naltirilgan bilim olish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar va tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limgan fanlarini integratsiyalash bugungi zamонавиъи та'limgan tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligi ayon bo'ldi. Integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, ularni hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, fanlararo bog'liqlikni tushunishga yordam berish hamda darslarni mazmunan boyitishda samarali metod hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mavzularni

yaxlit idrok etishga intiladi, shuning uchun ularning yoshiga mos, tushunarli va bog‘liq tarzda taqdim etilgan bilimlar nafaqat o‘rganishni osonlashtiradi, balki ularni darsga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar integratsiyalashgan darslarning samarali tashkil etilishi uchun o‘qituvchining metodik bilim va malakasi, darsliklar mazmunining o‘zaro uyg‘unligi hamda fanlararo bog‘liqlikni to‘g‘ri aniqlash muhim omillar ekanini ko‘rsatdi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini fanlararo integratsiya bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari orqali tayyorlash va ularning malakasini oshirish zarur; ikkinchidan, darsliklar va o‘quv-metodik majmualar mazmunini integratsiyalashgan holda ishlab chiqish va unda fanlararo bog‘liqlikka e’tibor qaratish lozim; uchinchidan, integratsiyalashgan dars ishlanmalari va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, ularni respublika miqyosida joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradigan, ularni kuzatish, solishtirish, tahlil qilishga undaydigan topshiriq va mashqlarni kengroq joriy etish ham ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A.A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
2. Murodov Z.A. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan yondashuv asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Teshaboyev M.M. Pedagogik texnologiyalar va integratsiya muammolari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
4. Abduazizova X.A. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
5. Jo‘raeva N.M. Boshlang‘ich ta’limda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish yo‘llari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022.

6.Xolboyeva D.I. Boshlang‘ich sinf darslarida integratsiyalashgan yondashuv. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

7.Islomova S.T. Didaktika asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2017.

8.Eshboeva G. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

9.Yusupova D.K. Boshlang‘ich ta’limda kreativ o‘qitish metodlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

10.Karimova M.X. Fanlararo integratsiyaning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2019.

11.Anvarovna, Umarova Dilafroz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,

12.Dilafroz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403.SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.

13.Anvarovna, Umarova Dilafroz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.

14.Umarova, Dilafroz Anvarovna. "BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA O ‘QUVCHILARNI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.